

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA  
HUQUQIY XULOSA**

**1.Loyihaning turi:** Shartnoma.

**2.Loyihaning nomi:** № 12-02/25-sonli Tabiiy gazni ulgurji iste'molchilarga yetkazib berish va qabul qilish shartnomasi to'g'risida.

**3.Loyihaning mazmuni:** Nizom asosida faoliyat yurituvchi **SEOvaJSB** (keyingi o'rinlarda "Iste'molchi" deb ataladi), rahbari **G.T.Bekiyev** bir tomondan hamda Nizom va 2022-yil "5" yanvarda berilgan 03-19-03/33-sonli ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi "Hududgaz Qoraqalpog'iston" gaz ta'minoti filiali (keyingi o'rinlarda "Etkazib beruvchi" deb ataladi), rahbari **X.Aymanov** ikkinch tomondan Tabiiy gazni ulgurji iste'molchilarga yetkazib berish va qabul qilish shartnomasini tuzish to'g'risida.

**3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:** Amudaryo tumani **SEOvaJSB** tomonidan 2022-yil 01-fevral kuni ishlab chiqilgan va **dasturga 2022-yil 31-yanvarda** kiritilgan.

Mazkur loyiha O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustidagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy - huquqiy bazasi to'g'risida"gi №670-I-son Qonunining 10-moddasiga asosan tuzilgan. Shartnoma shartlari va shartnomada nazarda tutilgan javobgarlik asoslari hamda nizolarni hal qilish tartibi O'zbekiston Respublikasining amaldagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy - huquqiy bazasi to'g'risida"gi №670-I-son Qonunining 21-moddasiga asosan, Qonunchilikka muvofiqligini aniqlash ekspertizaning asosini tashkil qildi.

Huquqiy ekspertiza natijasida quyidagilar aniqlandi:

1. Shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holatda tuzilgan. Shartnoma shartlari shunday munosabatlarni tartibga soluvchi qonun hujjatlari talablari me'yoriy hujjatlarga javob beradi. Mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining ikkinchi qismi 3-kichik bo'limi 6-§ energiya ta'minoti to'g'risidagi shartnoma qoidalariga bilan tartibga solinadi.



2. Shartnoma taraflarining javobgarligini belgilovchi me'yorlari va nizolarni hal qilish tartibi bilan bog'liq shartlari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik qonun hujjatlari me'yorlariga, shuningdek amaldagi boshqa qonun hujjatlari bilan belgilangan talablarga to'liq mos keladi.

3. Mazkur xulosani tuzish vaqtida tomonlarning mazkur Shartnoma talablarini bajarishga ta'sir ko'rsatuvchi hech qanday omillar, davlat boshqaruv organining qonuniy yoki boshqa ko'rsatmalari mavjud emas.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra,

### XULOSA:

Amudaryo tumani **SEOvaJSB** tomonidan 2022-yil 1-fevralda ishlab chiqilgan "№ 12-02/25-sonli Tabiiy gazni ulgurji iste'molchilarga yetkazib berish va qabul qilish shartnomasi to'g'risida"gi shartnomasining yuqoridagi keltirilgan asoslarga ko'ra qabul qilinishi **muvofigligi haqida.**

**Amudaryo tumani Yuridik  
Xizmat ko'rsatish markazi bosh  
yuriskonsulti: 1-darajali yurist:**



**Sh.Sh.Vaisniyazov**